

## AVESTO “YASHT”LARDA MITRANING AKS ETISHI

**Rahmonberdiyeva Mahkamoy Jo'ra qizi.**  
Termiz davlat universiteti tayanch doktoranti

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Mitraning “Yasht”larda keltirilishiga bag’ishlangan bo’lib, Mitraga atab bitilgan alqovlar va unda mazkur xudoning sifatleri keltirilishi izohlanadi. Mitraning ahdga sodiqlik, mo’l hosil bera olish sifati, keng yaylovlarni nazorat qilishi, yolg’on tarafdorlarini jazolashi va eng muhim jihat u Quyoshni ifodalashi, shu bilan bir qatorda Xurshed Yashtdagi quyosh alqovi bilan o’xshash va farqli xususiyatlar keltiriladi.

**Kalit so’zlar:** Mehr Yasht, zardushtiylik, Quyosh, haqiqat, shartnoma, Rigveda, Varuna, Xurshed Yasht, Xvare-shaeta, Baqtriya, Avesto, Ahriman.

**Abstract:** This article is devoted to the representation of Mithra in the “Yashts,” focusing on the hymns dedicated to Mithra and the description of his qualities. Mithra is portrayed as the guardian of oaths, the giver of abundance, the overseer of vast pastures, the punisher of those who follow falsehood, and most importantly, as the embodiment of the Sun. At the same time, the similarities and differences between the solar hymn in the Khvarshēd Yasht and the Mihr Yasht are analyzed.

**Keywords:** Mihr Yasht, Zoroastrianism, Sun, truth, covenant, Rigveda, Varuna, Khvarshēd Yasht, Khvare-shaeta, Bactria, Avesta, Ahriman.

Qadimgi Sharq mifologiyasi va diniy qarashlarida Mitra xudosining tutgan o’rni alohida e’tiborga loyiq. Mazkur maqolada Mitraning aynan Avesto matnlaridagi – xususan Mehr Yashtdagi obraziga e’tibor qaratiladi. Mitra — haqiqat, yorug’lik va ahdga sadoqat timsoli sifatida Avestoda keng ifodalangan. Zardushtiylik diniy tizimida u ahloqiy nazorat va ijtimoiy tartibni ta’minlovchi kuch sifatida namoyon bo’ladi. Maqolada ushbu obrazning semantik qatlamlari, diniy-falsafiy mazmuni va mifologik aspektlari tahlil qilinadi. Shuningdek, Mitra obrazining qadimgi Turon xalqlarining e’tiqodiy dunyoqarashiga ta’siri haqida ham fikr yuritiladi.

Mitra Avestoda “Mehr” nomi bilan tanilgan bo’lib, u haqiqat, muqaddas ahdnoma, quyosh va yorug’lik bilan bog’liq ilohiy kuchni ifodalaydi. Mehr Yashtda Mitra “ming ko’zli”, “ming quloqli”, “hammadan ogoh” sifatida ta’riflanadi. Bu — uning insoniyat ustidan doimiy nazorat qiluvchi, gunohkorlarni jazosiz qoldirmaydigan xudo sifatidagi obrazini kuchaytiradi. U Yaratganning amrlarini hayotga tatbiq etuvchi ilohdir.

Mehr Yashtda Mitraning quyidagi tasvirlari e’tiborga loyiq: Ming ko’zli va ming quloqli deya tasvirlangan timsoli mavjud bo’lib, bu timsollar uning butun olamni ko’ruvchi va eshituvchi, haqiqatni aniqlovchi xususiyatlarini anglatadi. U uzoq yerlarni va keng yaylovlarni nazorat qiladi deyiladi. Zardushtiylikda Mitra obrazining rivojlanishi faqat diniy emas, balki siyosiy jarayonlar bilan ham uzviy bog’liq. Dastlab Mehr shaxsiy axloq va haqiqat timsoli sifatida qaralsa, keyinchalik u davlatni himoya qiluvchi, podshohlikning axloqiy asosini yaratadigan kuch sifatida qaralgan. Mitraning obrazidan Eronda, So’g’diyona va Baqtriyada hokimiyatni muqaddaslashtirish vositasi sifatida foydalanilgan.

Shuningdek, ot minayotgan, qurol-yarog’langan jangchi sifatida ham tasvirlanib, Mitra faqat diniy emas, balki ijtimoiy va siyosiy jihatdan ham tartibni saqlovchi kuch sifatida ko’rsatiladi. Avesto

an'anasida "ahriman" kuchlariga qarshi kurashda eng muhim jihatlardan biri — bu ahdga sadoqatdir. Mitra ahdni buzganlarni jazolovchi, sodiqlarni esa himoya qiluvchi kuch sifatida e'tirof etiladi. U insonlar va xalqlar o'rtasidagi ishonch poydevorini ta'minlovchi xudo sifatida talqin qilinadi. Shu bilan bir qatorda tartibga rioya qilmaganlarni jazolash va to'g'ri hayot tarzida yashayotganlarga, qoidalarga rioya qilayotganlarga keng yaylovlar, mo'l hosil va yaxshi chorva berish bilan mukofotlaydi. Bundan tashqari Quyosh bilan bog'liqlik jihati uning eng muhim jihati bo'lib Mitra har tongda quyosh bilan birga osmonga ko'tariladi, bu esa uni nur, hayot va yangilanish bilan bog'laydi.

Avesto matnlarida, ayniqsa Mehr Yashtda, Mitra xudosi nur, haqiqat, tartib va ahd timsoli sifatida ta'riflanadi. Uning obrazi zardushtiylik diniy-falsafiy tizimining asosiy komponentlaridan biri bo'lib, inson va jamiyat axloqini tartibga soluvchi kuchdir. Mitra orqali qadimgi jamiyatning axloqiy ideallari, ijtimoiy qadriyatlari va diniy dunyoqarashi ifodalangan. Shu bois Mitraning Avestodagi aks etishi, nafaqat diniy, balki sivilizatsion taraqqiyot nuqtai nazaridan ham alohida o'ringa ega. Mehr Yasht jami 35 bo'lim, 146 banddan iborat.

"Avesto"ning barcha matnlari singari, "Mihr Yasht" ham ildizlari tarixdan oldingi sivilizatsiyasiga borib taqaladigan marosim shariatiga o'xshab ketadi. Mehr Yashtda "keng yaylovlar egasi, ming ko'zli" deb ulug'langan xudo Mitra, Vedalarda ham Mitra shaklida kelib, unda "shartnoma" tushunchasini o'zida mujassam etgan xudo sifatida paydo bo'lgan. Garchi Rigvedada faqat bitta madhida (3.59) Mitraga bag'ishlangan bo'lsada, u ko'pincha boshqa xudolar, ayniqsa Varuna xudosi bilan birga tasvirlanadi va ular ba'zan birgalikda "mitravaruna" nomi bilan ataladi.

Avestacha Hvare-xshaeta - bu birikma bo'lib, unda hvar "quyosh" stok epiteli sifatida xshaeta "nurli" ga ega. Avestacha hvar [proto-hind-eron tilidagi](#) suhar "quyosh" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, [Vedik sanskrit](#) teonimi [Surya](#) atamasi ham undan kelib chiqqan. [Orta fors](#) tilida Xvare -xshaeta Xvarshed bilan shartnoma tuzilgan bo'lib, yangi fors tilida Xurshed, [Xorshid](#) sifatida davom etgan va Avestocha "Nurli Quyosh" deya tarjima qilinadi.

Qisqa yetti baytdan iborat [6-Yasht Xvare-xshaetaga bag'ishlangan bo'lib, Avestoning](#) Quyosh haqidagi qismi ham hisoblanadi. [Zardushtiylik taqvimining](#) 11-kuni Xvare-xshaetaga bag'ishlangan va uning himoyasi ostida bo'lgan. Garchi an'anaga ko'ra, Xvare-xshaeta oxir-oqibat Quyoshning ilohiyligi sifatida [Mitra](#)ga e'tiqod qilingan bo'lsa ham Avestoda ikkalasi ham Quyosh ilohi sifatida keltirilgan.

Slavyan xudosi [Hors](#), odatda, etimologik jihatdan Xvare-xshaeta bilan bog'liq va, ehtimol, [Fors](#) qo'shinlarining miloddan avvalgi birinchi ming yillikda slavyan xalqlariga quyoshga sig'inish shakllarini joriy etishining natijasidir. Biroq, bu tanqiddan holi emas, chunki ikkala xudo o'rtasidagi etimologik bog'liqlik shubha ostiga qo'yilgan.

Avestodagi Mihr Yasht va Xurshed Yasht qismining o'xshash va farqli tomonlari mavjud: O'xshash jihatlaridan biri Quyosh va yorug'lik bilan bog'liqlik bo'lib, Mehr Yasht Mitrani ahd va haqiqat posboni, yorug'lik va quyoshning ilohiy timsoli sifatida tasvirlasa, Xurshed Yasht to'liq ravishda Quyosh xudosi ga bag'ishlangan. Har ikkisi ham olamning nur manbai, ijtimoiy tartib va hayotning davomiyligini ta'minlovchi kuch sifatida talqin qilinadi. Ikkinchi o'xshash jihati duo matnlaridagi o'xshashlik hisoblanadi, ya'ni Xvarshed Niyayishn va Mihr Niyayishn matnlarining dastlabki qismlari bir-biriga juda o'xshashdir. Bu holat, Mitra va Quyoshning diniy-falsafiy jihatdan bir-biriga

yaqinligini ko'rsatadi. Ikkalasi ham insoniyat hayotidagi yorug'lik, tartib va adolat manbai sifatida ko'riladi.

Shuningdek farqli jihatlar ham mavjud bo'lib, birinchi farqli jihati hajmi va tuzilishidagi farq hisoblanadi. Xurshed Yasht qisqa bo'lib, atigi 6 baytdan iborat. Shu bois u "Kichik Yasht"lar guruhiga kiradi. Mehr Yasht esa eng uzun Yashtlardan biri bo'lib, 145–146 baytni tashkil etadi. U esa "Katta Yasht"lar qatoriga kiradi. Mazmuni va falsafiy qamrovida ham farqli jihatlarni ko'rishimiz mumkin. Xurshed Yasht asosan Quyoshning nuriy fazilatlarini madh etish, uni hayot manbai sifatida ulug'lashga qaratilgan bo'lsa, Mehr Yasht esa bundan kengroq ko'lamni o'z ichiga oladi: Mitraning ahd va sadoqat timsoli sifatidagi roli, uning ijtimoiy va siyosiy tartibni himoya qilishi, ahdni buzganlarni jazolashi, geografik va ijtimoiy darajadagi hukmronligi batafsil yoritiladi. Ularning vazifalaridagi farqli jihatlarni keltiradigan bo'lsak, Xurshed Yasht asosan tabiat hodisasi sifatida Quyoshni madh etadi. Mehr Yasht esa insoniy munosabatlar, davlat va jamiyat hayotida ahdga sodiqlik va adolat tamoyillarini ta'minlovchi kuch sifatida diniy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Qisqa qilib aytadigan bo'lsak, Avestodagi Xurshed Yasht va Mehr Yasht mazmunan bir-biriga yaqin bo'lib, ikkalasida ham quyosh va yorug'lik timsoli markaziy o'rinni egallaydi. Biroq ular hajm, mazmuniy ko'lam va diniy-falsafiy qamrov jihatidan bir-biridan farq qiladi. Xurshed Yasht qisqa bo'lib, asosan quyoshni madh etish bilan chegaralansa, Mehr Yasht keng qamrovli bo'lib, Mitraning ahd, adolat va ijtimoiy tartibni himoya qiluvchi xudo sifatidagi rolini yoritadi. Shu tariqa, bu ikki Yashtning qiyosiy tahlili zardushtiylik diniy-falsafiy tizimida quyosh va yorug'lik g'oyasining naqadar chuqur o'rin tutganini ko'rsatadi.